

UDK 635.26:631.25:531.2

PIYOZ SELEKSIYASI UCHUN BIRLAMCHI MANBALAR TANLASH

B.B.Yusupov

SPE va KITI Buxoro ITS direktori

Sh.S.Ostonov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

O.O.Ramazonov

Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro ilmiy-tajriba stansiyasi seleksiya bo'limi boshlig'i

H.H.Olimov

Buxoro davlat texnika universiteti "Qishloq va suv xo'jaligi texnika-texnologiyalari" kafedrasida professori, t.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi iqlim sharoitida ertapishar piyozning nav namunalarini morfobiologik, xo'jalik muhim belgilari bo'yicha baholash, seleksiya ishlari uchun boshlang'ich manba ajratish bo'yicha olingan natijalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nav namunlari, nav, barg, urug', piyozbosh balandligi, eni, meva vazni, kun, hosildorlik.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sog'lom ovqatlanish tartibotini joriy etish bo'yicha 10 noyabr 2020 yildagi PQ-4887 – sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, bu qarorga javoban oziq-ovqat ekinlari turlarini va yetishtirish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Respublikamiz uchun asosiy sabzavot ekinlaridan bo'lgan piyoz – inson salomatligi hamda mehnat faoliyatini yaxshilashda bu ekinlar tarkibida ko'plab biologik faol moddalar hamda vitaminlarga boy bo'lganligi muhim hisoblanadi.

Piyozbosh tarkibida vitamin C (10 mg/100g) va shuningdek E, PP, B₁, B₂, B₆, biotin va folievoy, pantoten kislotalarini saqlaydi deb habar qilgan [1; 8 – 33-b].

Piyozbosh va bargi tarkibida kaliy tuzlari (259 mg %), fosfor, kalsiy, natriy, temir va boshqa kimyoviy elementlar saqlanadi. Bargi va xususan piyozbosh

tarkibida efir moylari (20-130 mg % piyozning achchiq navlarida, shirin navlarida esa 10-20 mg %) saqlanadi. Fitonsidlar va efir moylari piyozga, o'ziga xos maza va hid berar ekan. Piyoz qadimiy o'simlik bo'lib uning shifobaxshlik xususiyatlari qadimiy Misr, Gresiya va Rimda ma'lum bo'lgan [2; 233 – 253-b].

Materiallar va uslublar. Shularni hisobga olgan holda, amal davri qisqa, dorivorligi va tarkibining qimmatliligi bilan ajralib turadigan piyoz ekinini Respublikamiz iqlim sharoitida ertapishar navlari har tomonlama o'rganildi.

Tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, 2016-2018yillar davomida o'ndan ortiq navlari o'zoro taqqoslanib o'rganildi hamda piyoz seleksiyasi uchun birlamchi manbalar ajratildi.

Natijalar va munozara. Piyoz nav namunalarini ekishda barcha agrotexnik tadbirlar Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan 2016-2020 yillarga mo'ljallangan texnologik kartada keltirilgan ko'rsatmalar hamda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining Andijon viloyatida sabzavot, poliz va kartoshka etishtirish bo'yicha tavsiyanomalari (2017y) asosida olib borildi. O'rganilayotgan piyoz 12 ta nav namunolari urug'lari bir kunda mart oyining 10 sanasida ochiq maydolarga ekildi.

Piyoz nav namunalarining fenologik fazalarining kechish davomiyligi 1-jadvallarda keltirilgan.

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nazorat nav va o'rganilayotgan navlar o'rtasida "urug'larni ekish-maysalarning yoppasiga unib chiqishi", "maysalarni yoppasiga unib chiqishi-birinchi chinbarg paydo bo'lishi", gacha bo'lgan fenologik fazalarning davomiyligi standart bilan diyarli bir xil 16-19 kun oralig'ida amalga oshdi. Ammo, "unib chiqish -4-5 ta barg paydo bo'lishi" va piyozboshlar hosil bo'lishidan boshlab ularning o'rtasida farq sezila boshladi.

Nazorat navda maysalar yoppasiga unib chiqqandan -4-5 ta barg paydo bo'lishi 22 kun kerak bo'lgan bo'lsa, o'rganilayotgan mahalliy navlarda bu davr biroz kechiroq amalga oshib, 25 kunni ayrimlarida unchalik ham katta farq qilmagan bo'lsada, chetdan keltirilgan Sibir F1 va Pandera F1 duragaylarda sezilarli farq kuzga tashlandi va muvofiq ravishda 18-19 kunni tashkil etdi.

Bu esa standartga nisbatan 4 kunga vaqtli demakdir. Qolgan duragaylarda bu ko'rsatkich 21-22 kunni tashkil etdi va standart bilan bir xil ko'rsatkich kuzatildi.

Yoppasiga unib chiqqandan piyozboshlar hosil bo'lishigacha standart navda 62 kun talab etilgan bo'lsa, maxalliy navlardan Zafar navida bu ko'rsatkich 85 kunni Istiqbol navida 82 kunni tashkil etdi. Bu standartga nisbatan 20-23 kunga kech demakdir.

Qolgan mahalliy navlardan Oqdur navida 63 kun bo'lib hamda boshqa o'rganilayotgan duragaylarda bu ko'rsatkich standart bilan bir diyarli xil bo'ldi, ya'ni 59-63 kunni tashkil etdi.

O'rganilayotgan navlar amal davrining davomiyligi, ya'ni maysalar yoppasiga unib chiqqandan ildizmevalarning texnik pishib etilishigacha bo'lgan davr eng vaqtli amalga oshgan duragaylardan Sibir F1 duragayi bo'lib, piyozboshlar hosil bo'lishi 55 kunda amalga oshib, bu standart navga nisbatan 7 kunga standart Banko F1 duragayiga nisbatan 4 kunga vaqtli amalga oshganligi kuzatildi.

Yoppasiga unib chiqqandan piyozboshlarni texnik pishishi standart mahalliy Sumbula navda 115 kunda amalga oshdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham yuqorida ko'zatilgan qonuniyat saqlab qolindi. Bunda maxalliy navlardan piyozboshlarni texnik pishishi uchun Zafar navida 139 kun va Istiqbol navida 135 kun talab etdi. Bu standart navga nisbatan 24-20 kunga kech amalga oshdi.

Yoppasiga unib chiqqandan piyozboshlarni texnik pishishi standart Banko F1 duragayida 121 kunda amalga oshdi. Bu jarayon bo'yicha o'rganilayotgan duragaylar o'rtasidagi 120-126 kun oralig'ida amalga oshganligi tajribalarimizda kuzatildi. Biz o'rgangan nav-namunalari ichida Sibir G'1 duragayi mahalliy navlar va chetdan kirib kelgan duragaylar ichida eng tezpishar bo'lib, yoppasiga unib chiqqandan piyozboshlarni texnik pishishi 109 kunda oralig'ida amalga oshib, mahalliy navlardan o'rtacha 25 kun, duragaylardan 13 kun oldin pishib etilganligi tajribalardagi kuzatuvlarimizda aniqlandi.

O'rganilgan nav namunalarining hosildorligi va hosil sifati jihatidan har xil

ekanligi ma'lum bo'ldi. Eng yuqori hosildorlik Sibir F1 duragayida kuzatildi va uch yillik o'rtacha umumiy hosildorlik 45,4 t/ga ni tas' hkil etdi, Bu standartga Sumbula navga nisbatan 5,6 t/ga va standart Banko F1 duragayiga nisbatan 5,7 t/ga ko'p demakdir.

Qolgan Zafar, Oq dur, Istiqbol navlarida umumiy hosildorlik 40,9-41,3 t/ga ni tas' hkil etdi. Bu standartga nisbatan 2,6-3,8 foiz ko'm demakdir.

Tovarbop hosildorlik o'rganilayotgan barcha navlardan yaxs'hi natijalar olindi va 89,9-98,5 % ni tas' hkil etdi.

Piyozning nav namunalarining hosildorligini aniqlas'h bo'yicha qo'yilgan tajribalar o'rtasidagi xatoliklar ($EKTF_{05}$ t/ga) 0,97 t/ga yoki variantlar o'rtasidagi farq ($S_x, \%$) 0,07 % ni tas' hkil etdi.

Xulosalar

1. Dastlabki ma'lumotlar s'huni ko'rsatdiki biz o'rgangan nav-namunalari ichida Sibir F1 duragayi mahalliy navlar va chetdan kirib kelgan duragaylar ichida eng tezpis'har bo'lib, yoppasiga unib chiqqandan piyozbos'hlarni texnik pis'his'hi 109 kunda oralig'ida amalga os'hib, mahalliy navlardan o'rtacha 25 kun, duragaylardan 13 kun oldin pis'hib etilganligi tajribalardagi kuzatuvlarimizda aniqlandi.

2. O'rganilgan navlar ichida barg uzunligi bo'yicha nav namunalari ichida eng baland barg Sibir F1 duragayida qayt etilib, 29,2 sm ni tas' hkil etdi.

3. Piyozbos'h uzunligi bo'yicha ichida eng yuqorisi Sibir F1 duragayida qayt etilib, 7,8 sm ni tas' hkil etdi. Bu maxalliy standart Sumbula navga nisbatan 1,0 sm va standart Banko G'1 duragayiga nisbatan 1,7 sm ga baland demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pivovarov V.F., Konankov P. F., Nikuls'hin V.P. Znachenie ovoщey kak produktov pitaniya. Ovoщi – novinki na vas'hem stole. // Moskva VNISSOK, 1995 – S. 8-33.

2. Belik, V.F. Овощные культуры i texnologiya ix vozdelivaniya // V.F. Belik, V.S. Sovetkin. - M.: Agropromizdat, 1991. – S.233-253.
3. Bo'riev X.Ch., Zuev V.I., Umarov A.A. Polizchilikdan amaliy mas'hulotlar. T., "Mexnat", 1997.